

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 9

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 474 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 7-sentyabrda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori

Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessor

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Musayeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori

Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi

Djudi Smetana, p.f.n., Pittsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Krissi Lyuis, p.f.n., Pittsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya

Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyea Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.

MUNDARIJA

Innovatsion siyosatni amalga oshirish yo'nalishlari.....	16
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, Zaynutdinova Umida Djalolovna	
Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishning bozor mexanizmlari va ularni joriy etishdagi muammolar	21
Yusupov Shoxzod Maxmatmurodovich	
Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish davrlari ekonometrik modelini yaratish masalalari.....	24
Abdullayev Farxod Ozodovich	
Marketing yondashuvi asosida Sirdaryo viloyatining investitsion salohiyatini baholash usullari.....	35
Xolmurotova Diyoraxon Ibragimovna	
Bevosita soliqlar ma'muriyatchiligi.....	41
Idrisov Alisher Otajonovich	
Soliq nazorati va transfert narxni belgilashda soliq nazoratini tashkil etishning xorij tajribalari.....	46
Abdiev Jaxongir Ibragimovich	
Soliq siyosati va strategiyasining ilmiy-nazariy tahlili.....	53
Djumaniyazov Marks Quranbaevich	
Pestel tahlili – muvaffaqiyatli investitsiya qarorlarini qabul qilish asosi	60
Shaislamova Nargiza Kabilovna	
Tijorat banklari tomonidan biznes loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos xususiyatlari.....	67
Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li	
The significance, problems and solutions of the green economy in the New Uzbekistan economy.....	74
Sattorova Mehriniso, Ibragimova Gulchehra Tohirovna	
O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni soliqqa tortishning joriy qilinishi va rivojlanish tendensiyasi	79
Otamuradov Nuriddin Najmiddinovich	
Korporativ boshqaruvni innovasion rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari	87
Xalmuradov Elmurod Dilmuradovich	
Международный опыт стимулирования инновационной деятельности.....	93
Абдиуалиева Гулзада Азатовна	
How does foreign direct investment promote economic growth?	98
O'tkirova Bonu Azamat kizi	
Mintaqalarni barqaror rivojlantirishning konseptual asoslari va ular evolyutsiyasi.....	102
Umarov Abduvaxob Tursunovich	
Technological Innovations of Electronic Payment Systems.....	107
Mirkomil Boboyorov Murodullaevich	
Ta'lim xizmatlari sohasida davlat-xususiy sherikligining rivojlanishida xorij tajribasining o'rni va ahamiyati.....	115
Imomov Xolmurod Norqul o'g'li	
O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiya va xorijiy kreditlar jalb qilish samaradorligi tahlili	119
Maksudov Abdumalik Xodievich	
Davlat ehtiyojlari uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilishni takomillashtirish	124
G'ofurov Temur Baxrom o'g'li	



Mamlakatimizda oziq-ovqat sanoatini rivojlanish holati va uning dolzarbligi	129
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li	
Turizmda innovatsiyalarni qo'llash imkoniyatlari.....	133
Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li	
Davlat budjetining solikli daromadlari tahlili	139
Abduraimova Nigora Radjabovna	
Soliq yuki soliq tizimining qanchalik samarali ekanligini aniqlovchi muhim mezon	143
To'lakov Ulug'bek Toshmamatovich	
O'zbekiston sanoat korxonalarida xom ashyo resurslaridan samarali foydalanishning hozirgi holati, muammolari va mintaqaviy xususiyatlari (qashqadaryo viloyati misolida).....	151
Ochilov Akram Odilovich, Xazratov Sarvar Ibragimovich	
Состояние туристической инфраструктуры Ташкентской области.....	156
Гаппарова Майрамхон Зафар кизи	
Sanoatlashuvning ekologik ta'siri va "yashil" iqtisodiyotga o'tishning asoslari	161
Nosir Maxmudov, Lola Azimova	
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda sinergetik ta'sirning nazariy asoslari	167
Maxmudova Zoxida Maqsudali qizi, Normurodov Xusan	
Davlat budjeti xarajatlaridansamarali foydalanishni takomillashtirish.....	173
Sherxon Tuychiyev	
Savdo korxonalarida ta'minot zanjirining asosiy bosqichlari va muammolari.....	177
Ergashev Jahongir Baxodirovich	
Kichik biznes subyektlarining innovatsion loyihalarni moliyalashtirish yo'llari	180
Ergashev Firuz Baxodirovich, Ishturdiev Hasan Abdigapparovich	
Budjet tashkilotlarida qurilish-ta'mirlash xarajatlari hisobining asoslari.....	184
Azizova Zilola Lochin qizi	
Xorijiy mamlakatlarda tadbirkorlik subyektlari tomonidan mahallilashtirish asosida mahsulot ishlab chiqarishning o'ziga xos jihatlari	191
Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich	
Suv ekologiyasining asosiy yo'nalishi va uning fandagi o'rni.....	200
Musayeva Muqaddas Abdurashid qizi	
Анализ прибыли агропромышленности	204
Гафурова Азизахон Фатиховна	
Systematic analysis of briquette mass pressing equipment approach	209
Kobilov Khasan Khalilovich, Sharipova Nazira Rakhmatilloevna	
An Econometric Assessment of the Effects of Fintech on Economic Growth in Developed Countries	213
Anvarkhonov Abdulatifkhon Jamshidkhon ugli	
Raqamli iqtisodiyot rivojida korporativ boshqaruv faoliyatining roli	216
Muxitdinov Ulug'bek Diyarovich	
Значение промышленной сети в развитии деятельности предприятий малого бизнеса.....	221
Кодиров Жавлонбек Нематуллаевич	
Tadbirkorlik kambag'allikni qisqartirishning asosiy yo'nalishi.....	225
Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich	
Kichik biznes subyektlarida mahsulot ishlab chiqarishda innovatsiyani joriy etish masalalari.....	230
Mirzayev Kobil Nosirjonovich	
Investisiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarini rivojlantirish mexanizmlari.....	236
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	



Innovasion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida sifat menejmentini joriy etishning nazariy-uslubiy masalalari.....	242
Zarina Ashurova	
Social media marketing strategies for small businesses.....	247
Mannonov Shahzod Istam ugli	
Xalqaro shartnomalar qoidalarini qo'llashning xalqaro va milliy uslubiy tamoyillarining o'zaro ta'siri.....	250
Rajapov Shuxrat Zaripbaevich	
Neft-gaz, yoqilg'i energetika sanoati sohasidagi yirik soliq to'lovchilarda soliq nazoratini samarali tashkil etish va takomillashtirish masalalari	258
Abdullaev Shuxrat Sultanbaevich	
Суть и значимость инновационных технологий в региональном управлении	266
Муминов Фазлиддин Хусниддин угли	
SWOT-анализ использования социальных сетей в туристической индустрии узбекистана	279
Касимова Зилола Гуламиддиновна	
Germaniya tajribasidan foydalanish orqali o'zbekistonda turizm sohasidagi kadrlar salohiyatini rivojlantirish masalalari	287
Xamidova Mo'tabarxon Abdumalik qizi, Ochilov Akram Odilovich	
Blockchain texnologiyasining bank operatsiyalari xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni.....	291
Mirpulatova Luiza Mansurovna	
Tijorat banklarini reytingini aniqlashda bankometr modelidan foydalanish yo'llari.....	294
Karabaev Nodir Abduhamidovich	
Значение business city как инфраструктурного объекта	303
Солиева Умида Алишер кизи	
The potential for the development of wage labor as a factor	308
Usmanov Ilkhom Achilovich	
Ways to improve the organizational and economic mechanism of business tourism in Uzbekistan.....	312
Musayeva Shoirazimovna, Usmanova Dilfuza Ilkhomovna	
Kichik biznes subyektlarining faoliyatini baholashning metodologik asoslari	318
Mavrolov Ravshan Ne'matjonovich	
Kichik korxonalarini rivojlantirishda xorij tajribalaridan foydalanish.....	324
Ergasheva Nigora Abdigapparovna	
Mamlakatimizda intensiv baliqchilikni rivojlantirishning dolzarb masalalari	328
Mamatqulov Nurbek O'razali o'g'li	
Уменьшение выбросов парниковых газов и переход к возобновляемым источникам энергии	331
Р.Т. Шомуродов, И.И. Бахадиров, Р.Т. Умаров, И.Ш. Жамолиддинова	
Ipoteka bozorida investision muhitni yaxshilash yo'llari.....	341
Abdullaev Muhammadsodiq Isroil o'g'li	
Muammoli kreditlar: yechimlari va istiqbollari.....	346
Kalandarov Abdulla Baxtiyorovich	
Ishlab chiqarish korxonalarida risklarni boshqarish va ta'sirini baholash uslubiyati.....	351
Muxitdinov Shuhrat Ziyavitdinovich	
Zamonaviy sharoitda PR (jamoatchilik bilan aloqalar)ning mazmuni va ahamiyati.....	356
Ergasheva Fotimaxon Ibragimovna	
O'zbekiston moliya tizimida mahalliy moliyaning o'ziga xos xususiyatlari	361
Xikmatillayeva Dildora Shavkat qizi	



Rahbar kasbiy motivatsiyasini rivojlantirish ko'nikmalarini takomillashtirish	366
Shadiyev Sherzod Fayzullayevich	
Improvement of marketing communication strategies in chemical industry enterprises	375
Muminova Dildora Dilshadovna	
Mikromoliya tashkilotlarida islom moliyaviy instrumentlarini joriy etishni takomillashtirish	380
Axmedova O'g'ilshod Musurmonqul qizi	
Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflashning nazariy jihatlarini	384
Qodirova Nafisa Ilhomovna	
Importance-performance analysis as a useful tool for marketing audit processes of HEIs in Uzbekistan	388
Nurillo Umarxonov	
Тенденции энергетики будущего: шаги в новую фазу	396
Абдураимова Нигора Раджабовна	
Chet mamlakatlar pensiya tizimining o'ziga xos xususiyatlari	405
Tursunov Zohidxo'ja Orifovich	
Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklar faoliyatini statistik tadqiq etish xususiyatlari	412
Kutliyev Dilshod Orifovich	
O'zbekistonda suv tanqisligining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishgata'siri	419
Maxmudov Nosir Maxmudovich, Alimova Guzal Alisherovna	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotning kelajak istiqbollari	424
Egamberdiyev Humoyun	
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish va eksport qilishning holati hamda rivojlanish istiqbollari (namangan viloyati misolida)	433
Jo'raboieva Shohida Kamoliddin qizi	
Kichik korxonalarni rivojlantirishdagi muammolari va ularning yechimlari	439
Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li, Ergasheva Nigora Abdigapparovna	
Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribasi	422
Xaydarova Charos Nizomiddin qizi	
Namangan viloyati kichik biznes subyektlari faoliyatida real investitsiyalarning samaradorligini ekonometrik baholash	448
E.S.Jurayev	
Hududlarni iqtisodiy rivojlanishida investitsiyalar ko'rsatkichi tahlili (Sirdaryo viloyati misolida)	454
Karimqulov Jasur Imomboyevich, Alimova Dilafruz Tohir qizi, Qurbonova Shahnoza Yuldashbayevna	
Fiskal avtomatik stabilizatorlarning iqtisodiyotga ta'siri	462
Madaminova Maftuna	
"Yoshlar daftari"ning yuritish tizimini takomillashtirish yo'nalishlari	467
Turaeva Laylo Toshpulotovna	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga sarmoya kiritishning hozirgi holati va istiqbollari: barqaror rivojlanish sari	470
Malikov Nu'monjon Kamalovich	



O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA SARMOYA KIRITISHNING HOZIRGI HOLATI VA ISTIQBOLLARI: BARQAROR RIVOJLANISH SARI

Malikov Nu'monjon Kamalovich

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga sarmoya kiritishning hozirgi holati tahlil qilinadi, mavjud imkoniyatlar va muammolar ko'rib chiqiladi, shuningdek, ushbu sektorning kelajakdagi rivojlanish istiqbollari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: "yashil" iqtisodiyot, yashil o'sish, barqaror rivojlanish, moliyalashtirish instrumentlari, "yashil" moliyalashtirish.

Abstract: This article analyzes the current situation of investing in the green economy in Uzbekistan, considers existing opportunities and problems, and also discusses the future development prospects of this sector.

Key words: green economy, green growth, sustainable development, financing instruments, "green" financing.

Аннотация: В данной статье анализируется современное состояние инвестирования в зеленую экономику в Узбекистане, рассматриваются существующие возможности и проблемы, а также обсуждаются перспективы дальнейшего развития этого сектора.

Ключевые слова: зеленая экономика, зеленый рост, устойчивое развитие, инструменты финансирования, "зеленое" финансирование.

KIRISH

Zamonaviy dunyo iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi, ijtimoiy tengsizlikning kuchayishi va biologik xilma-xillikning yo'qolishi bilan bog'liq jiddiy muammolarga duch kelmoqda. Shu munosabat bilan so'nggi o'n yilliklarda iqtisodiy o'sish, ijtimoiy adolat va ekologik barqarorlikning uyg'unligini va'da qiladigan yashil iqtisodiyot konsepsiyasi tobora dolzarb bo'lib bormoqda.

Mazkur maqoladan maqsad yashil iqtisodiyotga o'tishni rejalashtirilgan O'zbekistonning bu boradagi islohotlar samaradorligini aniqlash hamda soha rivoji istiqbollari tahlil qilishdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Global iqlim o'zgarishi va barqaror rivojlanishga bo'lgan ehtiyoj ortib borayotgan bir sharoitda yashil iqtisodiyotga sarmoya kiritish muhim ahamiyat kasb etadi. Hukumatlar va xalqaro tashkilotlar bunday investitsiyalarni rag'batlantirish siyosatini faol ishlab chiqmoqda va amalga oshirmoqda. Mamlakatimizda mazkur yo'nalishda Raximov (2023), Zarekeyev A. (2024), Saidmamatov O (2014), Muhammadiyeva M. (2024) va bir qancha olimlar ish olib bormoqda. Yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi iqtisodiyotga o'tish zarurligi haqida BMT atrof-muhit dasturi (2011), Stern (2006); toza energiya, barqaror qishloq xo'jaligi va transportga investitsiyalarni rag'batlantirish masalasida Xitoy taraqqiyot banki (2020), AQSh Energetika vazirligi (2021); yashil iqtisodiyotga investitsiyalarni rag'batlantirish siyosati to'g'risida "Green Finance: An Overview" UNEP (2018), "Investing in a Sustainable Future: A Guide for Financial Institutions" Jahon banki (2019) kabi asarlarda so'z yuritilgan. Biroq yuqorida qayd etgan mualliflar tomonidan O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishning so'nggi tendensiyalari tahlil qilinmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada "Yashil" iqtisodiyotga oid nazariy mushohada, tizimli yondashuv, kuzatish, umumlashtirish va tahlil kabi usullar samarali qo'llanildi, shuningdek, "yashil" iqtisodiyot sohasida mavjud muammolar, bu borada amalga oshirilishi kerak bo'lgan vazifalari borasida xulosa va takliflar shakllantirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Barqaror rivojlanish, jumladan, yashil moliyalashtirish sohasidagi asosiy yo'nalish va ustuvorliklarni



belgilab beruvchi “Yashil iqtisodiyotga” o‘tish bo‘yicha Milliy strategiya¹ (2019–2030) qabul qilindi. Yashil investitsiyalarni rag‘batlantirishga qaratilgan qonunchilikka o‘zgartirishlar kiritildi, masalan, ekologik toza texnologiyalarga sarmoya kirituvchi kompaniyalar uchun soliq imtiyozlari joriy etildi.

Shuningdek, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida² “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi doirasida “yashil” va inklyuziv iqtisodiy o‘sishni ta‘minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejashni yanada kengaytirish vazifalari, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi³ 51-maqсадida “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish, uning asosi bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko‘rsatkichlarini keskin oshirish masalalari belgilab olindi.

Yashil iqtisodiyot bo‘yicha Milliy komissiya, shuningdek, yashil moliyalashtirishni rivojlantirish uchun mas‘ul bo‘lgan bir qator boshqa davlat organlari tuzildi. O‘zbekiston Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki kabi xalqaro moliya tashkilotlari (XMT) bilan faol hamkorlik qilib, ekologik toza loyihalarga sarmoya jalb qilmoqda.

O‘zbekiston yashil iqtisodiyotni rivojlantirish uchun salmoqli salohiyatga ega. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda quyosh va shamol energiyasining salohiyati elektr energiyasiga bo‘lgan hozirgi talabdan 10-12 baravar yuqoridir.

2024-yil yanvar oyi holatiga ko‘ra, sohaga 2,1 milliard dollar to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb qilingan, yana 13 milliard dollarlik loyihalar amalga oshirilmoqda. Deyarli barcha hududlarda zamonaviy quyosh va shamol elektr stansiyalari qurilmoqda⁴.

Xususan, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand va Surxondaryoda umumiy quvvati 1,6 gigavatt bo‘lgan 9 ta yirik quyosh va shamol elektr stansiyalari ishga tushirildi. Andijon, Samarqand, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida umumiy quvvati 183 megavatt bo‘lgan 6 ta yirik va kichik gidroelektr stansiyalari ishga tushirildi.

Shuningdek, ijtimoiy soha obyektlari, korxona va tashkilotlar, tadbirkorlarga qarashli binolar, turarjoy binolariga umumiy quvvati 457 megavatt bo‘lgan quyosh batareyalari o‘rnatildi. Ushbu maqsadlar uchun banklar tomonidan qariyb 2 trillion so‘m mablag‘ ajratildi.

Natijada qo‘shimcha 5 milliard kilovatt-soat ekologik toza elektr energiyasi ishlab chiqarish, 1,5 milliard kub metr gazni tejash imkoniyati yaratildi.

Sohada yo‘lga qo‘yilgan keng ko‘lamli ishlar mahalliy korxonalar tomonidan transformatorlar, turli turdagi kabellar, issiqlik kollektorlari, quyosh batareyalari, izolyatorlar, metall konstruksiyalar va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirishga ham sezilarli hissa qo‘shdi.

Bir so‘z bilan aytganda, “yashil” energiya iqtisodiyotimizning harakatlantiruvchi kuchlaridan biriga va chinakam milliy harakatga aylanib bormoqda.

2024-yilda “yashil energiya” ishlab chiqarish hajmi 13 milliard kilovatt-soatga yetadi va uning mamlakat umumiy energetika balansidagi ulushi 15 foizni tashkil etadi. Bunday qisqa davr uchun bu, albatta, juda ta‘sirli ko‘rsatkich sanaladi.

O‘zbekistonda yashil moliyalashtirishni rivojlantirish istiqbollari

Qiyinchiliklarga qaramay, O‘zbekistonda yashil moliyalashtirish katta istiqbolga egadir. Moliyaviy vositalarni ishlab chiqish, xususan, yashil obligatsiyalar kabi yangi moliyaviy vositalarni ishlab chiqish ekologik toza loyihalarga ko‘proq sarmoya jalb etishi kutilmoqda.

Iqlim o‘zgarishi va barqaror rivojlanishga e‘tibor kuchayishi bilan yashil loyihalar va shuning uchun yashil moliyalashtirishga bo‘lgan talab oshadi.

Aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining ehtiyojlaridan kelib chiqib, kelgusi uch yil ichida 2025-yildan boshlab umumiy quvvati 8 gigavatt bo‘lgan 28 ta yirik quyosh va shamol elektr stansiyalari foydalanishga topshiriladi. 944 kilometr uzunlikdagi yuqori voltli elektr tarmoqlari va 6 ta yirik nimstansiya quriladi, 2,2 gigavatt quvvatga ega 18 ta energiya saqlash tizimi o‘rnatiladi. Energetika tizimining barqarorligini ta‘minlash uchun tarmoqlarni qurish va zarur materiallarni hozirdanoq ishlab chiqarishni boshlash zarurligi ta‘kidlandi.

2024-yilda umumiy quvvati 2,6 gigavatt bo‘lgan 14 ta stansiyaning ishga tushirish, ularni tarmoqqa ulash uchun 5 ta nimstansiya quvvatini kengaytirish, 500 kilometr uzunlikdagi yuqori kuchlanishli elektr tarmoqlarini qurish rejalashtirilgan.

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2019 yildagi “2019 – 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-son Qarori. <https://lex.uz/docs/-4539502>

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

3 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

4 “Яшил” энергетика ҳам иқтисодиёт драйверларидан бирига, ҳам чинакам умуммиллий ҳаракатга айланмоқда. 28.02.2024 <https://president.uz/ru/lists/view/7055>



Umuman olganda, 2024-yilda yangi quvvatlar hisobiga kamida 85 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarish, shundan 6 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi quyosh va shamol stansiyalari hisobidan ishlab chiqarish rejalashtirilgan.

Aholining bunga qiziqishini oshirish maqsadida mamlakatimizda "Quyosh uyi" dasturi ishlab chiqilgan. Ushbu dasturga ko'ra, quyosh batareyalarini o'rnatgan aholiga har kilovatt elektr energiyasi uchun 1 ming so'mdan to'lanadi. Ayni paytda 11 mingga yaqin xonadon sohibasi ushbu imkoniyatdan samarali foydalanmoqda.

Bu ishlarni kengaytirish uchun jozibadorlikni yanada oshirish va quyosh panellaridan foydalanuvchilarni qo'llab-quvvatlashni davom ettirish zarur. Ushbu maqsadlar uchun qo'shimcha 50 million dollarlik resurslar ajratish va yana 100 million dollarlik xorijiy sarmoyani jalb etish masalasi ko'rib chiqilmoqda.

Quyosh energiyasidan foydalanish sohasida tadbirkorlar uchun ham qo'shimcha imtiyozlar yaratiladi. Xususan, quyosh batareyalari, invertorlar va akkumulyatorlarni import qilish bo'yicha bojxona imtiyozlari yana besh yilga uzaytiriladi.

Bu sohaning rivojlanishi turdosh tarmoqlarga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, yirik quyosh va shamol stansiyalarini yaratish, ularni tarmoqqa ulash, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash mamlakatimiz korxonalari uchun kamida 1 milliard dollarlik bozorni ochib beradi.

Shu bilan birga, O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish dasturini amalga oshirishdagi asosiy kamchiliklar sifatida quyidagilarni qayd qilish lozim:

1. Integratsiyalashgan yondashuvning yo'qligi. Turli tarmoqlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarga yetarlicha e'tibor berilmayapti. Ekologiya masalalari ko'pincha alohida holda, ularning iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga ta'sirini hisobga olmasdan ko'rib chiqiladi.

2. Monitoring va baholash tizimiing yetarli darajada emasligi: yashil iqtisodiyotga o'tish choralarining ta'siri haqida ma'lumotlarning yetishmasligi vazifalarni optimallashtirishni qiyinlashtiradi.

3. Toza texnologiyalarga investitsiyalar yetishmasligi. Moliyalashtirish, asosan, yashil iqtisodiyotga o'tishga emas, balki an'anaviy tarmoqlarga yo'naltiriladi.

4. Inson resurslarining yetishmasligi. Yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish va atrof-muhitni boshqarish sohasida tajribaga ega mutaxassislar yetishmaydi. Yashil iqtisodiyot sohasida samarali kadrlar tayyorlash va malaka oshirish dasturlari yo'lga qo'yish lozim.

5. Jamoatchilikni yetarli darajada jalb etmaslik. Aholi o'rtasida barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot g'oyalari targ'ib qilish biroz sust. Yashil iqtisodiyot dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda fuqarolarning ishtiroki nisbatan cheklangan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yashil moliyalashtirish O'zbekistonda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning asosiy omili hisoblanadi. Mamlakat ushbu sohani rivojlantirish uchun salmoqli salohiyatga ega, lekin ayni paytda muayyan muammolarga duch kelmoqda. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, moliyaviy vositalarni ishlab chiqish, xabardorlikni oshirish, institutsional infratuzilmani mustahkamlash va faol xalqaro hamkorlik yashil moliyalashtirishni muvaffaqiyatli amalga oshirish va yashil iqtisodiyotga o'tishning asosiy omillaridir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagilar tavsiya etiladi:

Moliyaviy vositalarni rivojlantirish: yashil loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirish uchun yashil obligatsiyalar, fondlar va kreditlar kabi yangi moliyaviy vositalarni ishlab chiqish muhimdir.

Institutsional infratuzilmani mustahkamlash: yashil moliyalashtirishni tartibga solish va rivojlantirish uchun mas'ul bo'lgan maxsus institut yoki tuzilmani yaratish kerak.

Jamoatchilik ishtirokini oshirish: aholi va korxonalar uchun yashil moliyalashtirish haqida xabardorlikni oshirish uchun ta'lim kompaniyalari va o'quv dasturlari o'tkazilishi kerak.

Xalqaro hamkorlikni mustahkamlash: yashil loyihalarni amalga oshirish uchun moliyaviy va texnik yordam bera oladigan xalqaro hamkorlar va investorlarni faol izlash zarur.

O'zbekistonda yashil moliyalashtirish rivojlanishning dastlabki bosqichida, lekin barqaror iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va atrof-muhitni muhofaza qilish uchun salmoqli salohiyatga ega. O'ylaymizki, institutsional infratuzilmani mustahkamlash, yangi moliyaviy vositalarni ishlab chiqish, xabardorlikni oshirish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash bo'yicha zarur choralarni ko'rish orqali O'zbekiston Markaziy Osiyoda yashil moliyalashtirish bo'yicha yetakchiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Карриева Ш.С. Финансирование зеленых проектов в Узбекистане. "Экономика и социум" №6(121) 2024. www.iupr.ru
2. Muhammadiyeva M. "Yashil" iqtisodiyotni moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot 2024-yil, iyun. № 6-son. 24-26 bet.



3. Raximov X, Usmonov N, Yashil iqtisodiyotga o'tishning O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishdagi o'rni, Journal of New Century Innovations, Volume-27_Issue-6_April_2023.
4. Zarekeyev A. O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tishi: muammolar va imkoniyatlar, International scientific-practical conference "Green economy - the economy of the future: innovations, investments and prospects" April 24, 2024, <https://doi.org/10.5281/zenodo.11003786>, 300-302 b.
5. Saidmamatov O., Salaev S., Eshchanov B., & Shimin L. (2014). Renewable energy potential of developing countries: The drivers towards a green economy (a case study from Uzbekistan). International Journal of Green Economics, 8(2), 134-143.
6. United Nations Environment Programme. Division of Early Warning, & Assessment. (2011). UNEP year book 2011: emerging issues in our global environment. UNEP/Earthprint.
7. Stern N. (2006). Stern Review: The economics of climate change. https://www.adaptacesidel.cz/data/upload/2016/04/stern_summary_what_is_the_economics_of_climate_change.pdf
8. Berrou R., Dessertine P. & Migliorelli M. (2019). An overview of green finance. The rise of green finance in Europe: opportunities and challenges for issuers, investors and marketplaces, 3-29.
9. "Яшил" энергетика ҳам иқтисодиёт драйверларидан бирига, ҳам чинакам умуммиллий ҳаракатга айланмоқда. 28.02.2024 <https://president.uz/ru/lists/view/7055> .
10. OECD (2024), Финансирование перехода Узбекистана к "зеленой" экономике: Развитие рынка капитала и возможности для выпуска "зеленых" облигаций, OECD Publishing, Paris, <https://doi.org/10.1787/62ea4f13-ru>.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2019 yildagi "2019 – 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-son Qarori. <https://lex.uz/docs/-4539502>
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Shahzod Avilqulov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

